O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM FAN VAZIRLIGI

KELISHILDI
A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori
_____ A.A.Ismailov
“____” _____ 2026-yil

KELISHILDI
Kasbiy ta’lim agentligi direktori
_____ A.N.Xusanov
“____” _____ 2026-yil

TASDIQLANDI
Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktori
_____ D.T.Davidova
“____” _____ 2026-yil

KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARI VA ULARNING O‘RINBOSARLARI UCHUN MENEJERLIK O‘QUV KURSINING YAKUNIY SINOVLARI BO‘YICHA TEST, KEYS VA AMALIY TOPSHIRIQLAR

SPETSIFIKATSIYASI

Toshkent – 2026

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARI VA ULARNING O'RINBOSARLARI UCHUN MENEJERLIK O'QUV KURSINING YAKUNIY SINOVLARI BO'YICHA TEST, KEYS VA AMALIY TOPSHIRIQLAR SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur menejerlik o'quv kursining yakuniy sinov topshiriqlari spetsifikatsiyasi kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun menejerlik o'quv kurslarining yakuniy sinovlarida qo'llaniladigan test, keys va amaliy topshiriqlarning mazmuni, qamrovi, keng qamrovli baholanadigan konstruktlari, kognitiv darajalari, test turlari, baholash mezonlari hamda o'tkazish tartibini belgilaydi.

Spetsifikatsiyaga amaldagi namunaviy o'quv dasturiga muvofiq qo'shimcha, o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlarining menejerlik o'quv kurslari doirasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatini anglash, kasbiy ta'limni strategik va innovatsion boshqarish, ta'limda liderlik ko'nikmalarini namoyon etish va o'zgarishlarni boshqarish, o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish va akademik rivojlanishni ta'minlash, ta'lim sifatini baholash va takomillashtirish, pedagog va xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini (CPD) qo'llab-quvvatlash, moliyaviy, moddiy va inson resurslarini oqilona boshqarish, shaffof ish yuritish va hisobdorlikni ta'minlash, shuningdek, dual ta'limni tashkil etish hamda xalqaro hamkorlik va xorijiy ta'lim dasturlarini joriy etishga oid nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks baholashdan iborat.

Baholash tamoyillari – mazkur baholash natijalari menejerlik o'quv kursining yakuniy test sinovida qabul qilinadigan qarorlar valid (asoslangan) bo'lishini ta'minlash maqsadida, baholashning barcha bosqichlarida xalqaro baholash standartlariga muvofiq validlik, ishonchlilik, obyektivlik (xolislik), adolat va shaffoflik tamoyillariga qat'iy rioya qilinishi ta'minlanadi..

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktyabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktyabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-avgustdagi "Kasbiy ta'lim tizimi boshqaruv va pedagog kadrlarini kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 451-son qarori.

III. Test va keyslarni baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Bilim va ko‘nikmalar	Testlar soni
Test topshiriqlari		**25 ta**
1. Ta’lim menejmenti va innovatsiyalarni boshqarish	- Kasbiy ta’lim tashkilotida strategik rejalashtirishning mohiyati, operatsion, taktik va strategik rejalashtirishning o‘zaro bog‘liqligi, missiya, vizion va qadriyatlar, SWOT, PEST tahlillari, mehnat bozori talablari va kasbiy trendlar, SMART mezonlari, strategik maqsadlar, harakat rejasi, resurslarni boshqarish, monitoring va PDCA sikli tamoyillarini bilishi, ularni amaliy boshqaruv vaziyatlarida qo‘llay olishi; -Kasbiy ta’lim tashkilotini boshqarishning mohiyati, tamoyillari va boshqaruv sikli, strategik va operativ boshqaruv, zamonaviy boshqaruv modellari, KPI tizimi, natija va yetaklovchi indikatorlar, muvozanatli ko‘rsatkichlar, KPI kaskadlash, monitoring, ma’lumotlar sifati, dashboard, o‘zgarishlarni boshqarish va natijalarga asoslangan rag‘batlantirish tamoyillarini bilishi, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi; - Kasbiy ta’lim tashkilotida boshqaruv qarorlarining mohiyati, turlari, tashkiliy-pedagogik xususiyatlari, qabul qilish va amalga oshirish bosqichlari, pedagogik kengashning vazifalarini bilishi, KPI, monitoring, Graduate Tracking, Dropout Analysis va manfaatdor tomonlar fikri asosida qarorlar qabul qila olishi; - Kasbiy ta’lim tashkilotida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy-me’yoriy asoslari, “halollik vaksinasi”, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bilishi, shaffoflik, raqamlashtirish, nazorat va profilaktika choralarini amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar; -Kasbiy ta’limda innovatsion boshqaruv mexanizmlari, strategik, operatsion va loyihaviy boshqaruv, raqamli texnologiyalar, SWOT, PESTEL, SMART, Balanced Scorecard, Lean Management, Kaizen, Agile, PDCA va KPI yondashuvlarini bilishi, ularni innovatsiyalarni joriy etish, resurslarni boshqarish va samaradorlikni baholashda qo‘llay olishi; - Kasbiy ta’limda ichki va tashqi xavf-xatarlar, risk assessment, xavflarni kamaytirish strategiyalari, preventiv choralar, axborot xavfsizligi va tashkiliy-boshqaruv xavflarini bilishi, xavflarni baholash, ustuvorlashtirish,	4

	zaxira rejalarni ishlab chiqish usullarini qo‘llay olishi, ularning oqibatlari va rahbar mas’uliyatini tahlil qilib, mulohaza yurita olishi.	
2. Ta’limda liderlik va o‘zgarishlarni boshqarish	- Kasbiy ta’limda rahbarlik kompetensiyalarining turlari, umumiy va kasbiy kompetensiyalar, kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt, klassik va zamonaviy liderlik modellari (transaksion, transformatsion, servant leadership, adaptiv, raqamli va innovatsion liderlik) mohiyatini bilishi, ularni jamoani boshqarish, motivatsiyalash, muloqot va o‘zgarishlarni boshqarish jarayonlarida qo‘llay olishi; - Kasbiy ta’limda boshqaruv psixologiyasi, rahbar faoliyatidagi psixologik omillar, inson xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya, jamoa psixologiyasi, rasmiy va norasmiy guruhlar, rahbar avtoriteti va ishonchining mohiyatini bilishi, psixologik yondashuvlarni jamoani boshqarish, xodimlarni rag‘batlantirish va sog‘lom psixologik muhit yaratishda qo‘llay olishi; - Kasbiy ta’limda strategik o‘zgarishlarning mohiyati, ichki va tashqi omillar, reaktiv va proaktiv o‘zgarishlar, o‘zgarish nazariyasi (Theory of Change), SWOT, PESTEL, TOWS tahlillari hamda Levin, Kotter va ADKAR modellarini bilishi, ularni o‘zgarishlarga ehtiyojni aniqlash, rejalashtirish va amalga oshirishda qo‘llay olishi; - Kasbiy ta’limda manfaatdor tomonlarning turlari, ularni tasniflash va tahlil qilish, ta’sir–manfaat matritsasi, kommunikatsiya, konfliktlarni boshqarish, hamkorlik va sheriklik hamda murojaatlar bilan ishlashning huquqiy-tashkiliy asoslarini bilishi, samarali muloqot va hamkorlik strategiyalarini amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi, ularning samaradorligini tahlil qilib, mulohaza yurita olishi.	3
3. O‘quv jarayonini boshqarish va akademik rivojlanish	- Kasbiy ta’lim standartlari, kasb standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari hamda ta’lim natijalarining o‘zaro bog‘liqligini bilishi, kompetensiyaga asoslangan o‘quv dasturlarini loyihalash, o‘qitish natijalari va baholash mezonlarini belgilash, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda dasturlarni amalga oshirish va monitoring qilish usullarini qo‘llay olishi; - Kasbiy ta’limda kompetensiyaga asoslangan ta’limning mohiyati, Hard skills va Soft skills, KSA modeli, zamonaviy ta’lim yondashuvlari (CBE, OBE, SBL, Case Study, PjBL, PBL), pedagogika va andragogika, teskari loyihalash, konstruktiv moslik, kompetensiyalarni baholash usullari va rubrikalarni bilishi, ularni o‘quv jarayonini	3

	tashkil etish, ta'lim natijalarini belgilash va baholashda qo'llay olishi; - Kasbiy ta'limda inklyuziv ta'limning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, normativ-huquqiy asoslari, LNOB tamoyili, teng imkoniyatlar va alohida ta'lim ehtiyojlarini bilishi, ta'limdagi to'siqlarni aniqlash, oqilona moslashtirish, individual qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va monitoring mexanizmlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay olishi; - Kasbiy ta'limda mehnat muhofazasi, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, jismoniy, psixologik va raqamli xavfsizlik, zo'ravonlik, tazyiq, kamsitish, bulling, kiberbulling hamda nizolarning oldini olishning huquqiy-tashkiliy asoslarini bilishi, xavfsizlik, profilaktika, nizolarni hal etish va sog'lom munosabatlarni shakllantirish choralarini amaliy vaziyatlarda qo'llay olishi; - Kasbiy ta'limda raqamli boshqaruv texnologiyalari, LMS, PROF-EMIS, elektron jurnal, monitoring tizimlari, sun'iy intellekt, bulutli va masofaviy ta'lim platformalari hamda QR-kodlarning imkoniyatlarini bilishi, ularni ta'lim jarayonini raqamlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini asoslash va axborot xavfsizligini ta'minlashda qo'llay olishi hamda tahlil qilib, mulohaza yurita olishi.	
4. Ta'lim sifatini boshqarish va takomillashtirish	- Kasbiy ta'lim sifatining mohiyati, tamoyillari, milliy va xalqaro sifatni ta'minlash tizimlari, akkreditatsiya talablari, PDCA, TQM, EQAVET, EAS TVET QAF, ESG, ISO, CAF va boshqa sifat modellari hamda sifat madaniyatini bilishi, ichki va tashqi sifatni ta'minlash mexanizmlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay olishi; - Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimining mohiyati, konseptual modeli, tamoyillari, tashkiliy mexanizmlari va PDCA siklini bilishi, kontekst, resurslar, jarayonlar va natijalarni baholash, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ichki sifat tizimini joriy etish va monitoring qilish usullarini qo'llay olishi; - Kasbiy ta'lim sifatini ta'minlashning institutsional mexanizmlari, standartlari, mezonlari, indikatorlari, EQAVET yondashuvi va milliy akkreditatsiya talablarini bilishi, QualiCarte, Graduate Tracking, Curriculum Review, ichki audit va manfaatdor tomonlar fikri asosida sifatni baholash hamda takomillashtirish mexanizmlarini qo'llay olishi; -Kasbiy ta'limda ichki baholash, dalillar bazasi, ma'lumotlar ishonchliligi, triangulyatsiya, KPI, Quality Dashboard, Graduate Tracking, QEP va PDCA	3

	tamoyillarini bilishi, dalillarni yig‘ish, o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholash, monitoring va sifatni takomillashtirish usullarini qo‘llay olishi hamda ularni tahlil qilib, mulohaza yurita olishi.	
5. Pedagog va xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish	- Pedagoglar attestatsiyasining me’yoriy asoslari, baholash mezonlari va indikatorlari, pedagogik kompetensiyalar hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish tamoyillarini bilishi, darslarni kuzatish, tahlil qilish, konstruktiv qayta aloqa berish va individual rivojlanishni rejalashtirish mexanizmlarini qo‘llay olishi; - Uzluksiz kasbiy rivojlanishning mohiyati, 70–20–10 modeli, kasbiy rivojlanish yo‘llari, qayta tayyorlash va malaka oshirish shakllari, mentorlik, o‘zaro kasbiy o‘rganish va my.moqt.uz platformasi imkoniyatlarini bilishi, individual va jamoaviy rivojlanishni rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va monitoring mexanizmlarini qo‘llay olishi; - Pedagog va ustozlarni metodik qo‘llab-quvvatlashning me’yoriy asoslari, davlat va ichki metodik xizmat tizimi, metodik yordam shakllari, o‘quv-uslubiy materiallar ekspertizasi, elektron metodik bank va ochiq ta’lim resurslarini bilishi, metodik ehtiyojlarni aniqlash, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish, mentorlik, korxona hamkorligi va tajriba almashish mexanizmlarini qo‘llay olishi hamda ularni tahlil qilib, mulohaza yurita olishi.	2
6. Moliyaviy, moddiy va inson resurslarini boshqarish	- Kasbiy ta’limda kadrlar siyosati, strategik HRM, inson resurslarini rejalashtirish, xodimlarni tanlash, moslashtirish (onboarding), STAR modeli, HR analitika, KPI, kadrlar zaxirasi, motivatsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish tamoyillarini bilishi, kadrlar auditi, kompetensiyalarni baholash, xodimlarni rivojlantirish va rag‘batlantirish mexanizmlarini qo‘llay olishi; - Kasbiy ta’lim tashkilotlarida moliyaviy-xo‘jalik boshqaruvining me’yoriy asoslari, budjet va budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalari, xarajatlar guruhlari, smeta, g‘aznachilik, moliyaviy nazorat, rivojlantirish jamg‘armasi, dual ta’limni moliyalashtirish va ta’lim xizmatlari marketingini bilishi, moliyaviy resurslarni rejalashtirish, taqsimlash va maqsadli sarflash mexanizmlarini qo‘llay olishi; - Kasbiy ta’lim tashkilotining moliyaviy mustaqilligi, moliyaviy resurslarning manbalari va turlari, fandrayzing, investitsiyalar, smeta ijrosi, moliyaviy shaffoflik hamda	3

	Pedagogik va Kuzatuv kengashlarining vakolatlarini bilishi, qo‘shimcha mablag‘larni jalb etish, moliyaviy rejalashtirish, resurslarni maqsadli taqsimlash va nazorat qilish usullarini qo‘llay olishi; -Kasbiy ta’limda xomashyo, material, jihoz va uskunalarga ehtiyojni aniqlash, talabnomalarni rasmiylashtirish, moddiy resurslarni qabul qilish, saqlash, hisobdan chiqarish, inventarizatsiya va hujjat yuritishning me’yoriy asoslarini bilishi, materiallar sarfini hisoblash, talabnomalar tuzish, resurslardan samarali va xavfsiz foydalanish hamda moddiy hisobni yuritish tartiblarini qo‘llay olishi hamda ularning samaradorligini tahlil qilib, mulohaza yurita olishi.	
7. Ish yuritish va hisobdorlik	- Kasbiy ta’lim tashkilotining tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv vakolatlari, Belbin jamoaviy rollar modeli, ichki nazorat, monitoring, kommunikatsiya va ta’lim sohasidagi davlat hamda ichki siyosatning me’yoriy asoslarini bilishi, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, vazifalarni taqsimlash va boshqaruv qarorlari ijrosini ta’minlash usullarini qo‘llay olishi; - Moliyaviy, mehnat va asosiy faoliyat hisobdorligining mohiyati, tamoyillari, mehnat munosabatlarining huquqiy asoslari, ish vaqti, shtat, yuklama, kontingent, davomat, dual ta’lim va bitiruvchilar bandligi ko‘rsatkichlarini bilishi, hisobotlar, elektron reyestrlar va raqamli platformalar asosida ma’lumotlarni yuritish, solishtirish va monitoring qilish usullarini qo‘llay olish; - Kasbiy ta’lim tashkilotining boshqaruv tuzilmasi, strategik, taktik va operativ boshqaruv darajalari, boshqaruv organlari funksiyalari, vakolat, mas’uliyat, javobgarlik, delegatsiya va eskalatsiya tamoyillarini bilishi, funksiyalarni taqsimlash, vakolatlarni uzatish, ichki reglamentlar va boshqaruv qarorlarini muvofiqlashtirish mexanizmlarini qo‘llay olishi; -Elektron hujjat aylanishi, elektron raqamli imzo, ijro nazorati, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, axborot xavfsizligi, shaxsga doir ma’lumotlarni himoyalash va arxiv ishining me’yoriy asoslarini bilishi, hujjatlarni ro‘yxatga olish, ijrosini nazorat qilish, murojaatlarni ko‘rib chiqish, ma’lumotlarni himoyalash va arxivlash tartiblarini qo‘llay olishi hamda ularni tahlil qilib, mulohaza yurita olishi.	2
8. Dual ta’limni tashkil etish va boshqarish	- Dual ta’limning mohiyati, normativ-huquqiy asoslari, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari, mehnat qonunchiligi, moddiy rag‘batlantirish mexanizmlari va	3

	xalqaro tajribalarni bilishi, dual ta'limni tashkil etish, mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish va o'quvchilar huquqlarini ta'minlash tartiblarini qo'llay olishi; - Mehnat bozori tendensiyalari, hududiy drayver sohalar, malakalar nomutanosibligi, Milliy malakalar tizimi, SWOT, PEST tahlillari va ish beruvchilar bilan hamkorlik modellarini bilishi, mehnat bozori va ish beruvchilar ehtiyojlarini aniqlash, hamkorlik strategiyalarini shakllantirish hamda ta'lim dasturlarini kasbiy talablarga moslashtirish usullarini qo'llay olishi; - Kasb va lavozimlarning funksional tahlili, kasbiy standartlar, dual ta'lim ishtirokchilarining vazifalari, ish joyida o'qitish, ustozlik, baholash va mehnat xavfsizligi tamoyillarini bilishi, hamkor korxona bilan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, amaliy ta'limni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish mexanizmlarini qo'llay olishi; - Dual ta'lim sifati va natijadorligi, kasbiy kompetensiyalarni baholash mezonlari, monitoring, qayta aloqa, pedagog va ish joyidagi ustoz vazifalari hamda ish beruvchilarning imtihonlardagi ishtiroki tamoyillarini bilishi, amaliy topshiriqlar, kuzatuv, portfolio va ish beruvchilar fikri asosida ta'lim sifatini baholash hamda takomillashtirish usullarini qo'llay olishi hamda samaradorligini tahlil qilib, mulohaza yurita olishi.	
9. Xalqaro hamkorlik va xorijiy ta'lim dasturlarini joriy etish	- Kasbiy ta'limda xalqaro ekotizimning mohiyati, xorijiy va xalqaro tashkilotlar (SFUVET, BIBB, CEDEFOP, ILO, OECD, WorldSkills), ularning vazifalari, xalqaro hamkorlik mexanizmlari va normativ-huquqiy asoslarini bilishi, xalqaro hamkorlik shakllari, memorandum va shartnomalar hamda xalqaro standartlardan foydalanish mexanizmlarini qo'llay olishi; - Xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlarini loyihalash tamoyillari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, xorijiy hamkorlarni tanlash, milliy malaka talablari, huquqiy ekspertiza, moliyalashtirish va sifatni ta'minlash mexanizmlarini bilishi, xorijiy dasturlarni mehnat bozori ehtiyojlari va mahalliy sharoitga moslashtirish, o'quv natijalari hamda baholash mezonlarini belgilash usullarini qo'llay olishi; - Xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlarining normativ-huquqiy asoslari (PF-158, VM 614), Joint/Double Degree, TNE, franchayzing, kredit transferi, akademik mobillik, qo'shma o'quv reja va xalqaro akkreditatsiya modellarini bilishi, hamkorlarni tanlash, dasturlarni ekspertizadan	2

	o‘tkazish, kelishuvlarni rasmiylashtirish, o‘quv jarayoni va baholashni tashkil etish tartiblarini qo‘llay olishi hamda samaradorligini tahlil qilib, mulohaza yurita olishi.	
Keys topshiriqlari		5
11. Kasbiy amaliyot (ilg‘or tajribani o‘rganish)	-Kasbiy ta’lim tashkilotini strategik va operativ boshqarish, ta’lim sifati, pedagogik jarayonlar, inson, moliyaviy va moddiy resurslar, dual ta’lim, xalqaro hamkorlik, ish yuritish, kasbiy rivojlanish, inklyuziv ta’lim hamda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektga oid bilim va ko‘nikmalarni murakkab amaliy boshqaruv vaziyatlarida kompleks qo‘llay olishi. - Kasbiy ta’lim tashkiloti faoliyatidagi muammolar, xavf-xatarlar va boshqaruv natijalarini tahlil qilishi, ilg‘or tajriba va innovatsion yondashuvlar asosida muqobil yechimlarni baholay olishi, strategik rivojlanishga yo‘naltirilgan asosli boshqaruv qarorlarini qabul qila olishi, mulohaza yurita olishi.	5
Jami		**30 ta**

IV. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

V. Test turlari

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test (oddiy va kombinatsiyalashgan shaklda)
2.	Y2	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
3.	Y3	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VI. Menejerlik o‘quv kurslarining amaliy topshiriqlarini baholash mezonlari

T/r	Yuqori daraja (4 ball)	O‘rta daraja (3 ball)	Quyi daraja (2 ball)	Qoniqarsiz (1 ball)
1	Amaliy topshiriqning tarkibiy qismlari va mazmuniga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi, yoritilgan ma’lumotlarning asoslanganligi, mantiqiy davomiyligi va izchilligi, maqsadi, vazifalari va xulosalarning mosligi.	Amaliy topshiriqning tarkibiy qismlari va mazmuniga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, yoritilgan ma’lumotlar asoslangan, mantiqiy davomiyligi to‘g‘ri keltirilmagan.	Amaliy topshiriqning mazmuni talab darajasida emas, ma’lumotlar asoslanmagan, maqsadi va vazifalari to‘g‘ri qo‘yilmagan.	Amaliy topshiriq mavzu doirasida tayyorlangan, ammo talab darajasida emas. Maqsad, vazifalar va xulosalar mavjud emas.
2	Aniqlangan muammolarning yechimi yuzasidan xorijiy davlat tajribalari o‘rganilganligi va aniq misollar keltirilganligi.	Aniqlangan muammolarning yechimi yuzasidan 2 ta xorijiy davlat tajribalari o‘rganilganligi va aniq misollar mavjudligi.	Aniqlangan muammolarning yechimi yuzasidan 1 ta xorijiy davlat tajribasi o‘rganilganligi va aniq misollar mavjudligi.	Aniqlangan muammolarning yechimi yuzasidan mahalliy tajribalar o‘rganilganligi va aniq misollar mavjudligi.
3	Kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etishi, kommunikativ kompetensiyalarni to'liq egallaganligi, muloqot manyeralarini tanlay olishi.	Kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etishi, kommunikativ kompetensiyalarni qisman egallaganligi, muloqot manyeralarini tanlay olishi.	Kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etishi, kommunikativ kompetensiyalarni egallamaganligi, muloqot manyeralarini tanlay olmaganligi.	Kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etmaganligi, kommunikativ kompetensiyalarni egallamaganligi, muloqot manyeralari mavjud emasligi.
4	Loyiha (taqdimot)da axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish darajasi, tayyorlagan taqdimotini mustaqil bajarganligi.	Loyiha (taqdimot)da axborot texnologiyalaridan an’anaviy usulda foydalanganligi, tayyorlagan taqdimotini mustaqil bajarganligi.	Loyiha (taqdimot)da axborot texnologiyalaridan qisman foydalanganligi, tayyorlagan taqdimotini mustaqil bajarganligi.	Loyiha (taqdimot)da axborot texnologiyalaridan qisman foydalanganligi, taqdimotni mustaqil taqdim etishda AKTdan foydalanish ko‘nikmasi yo‘qligi.
5	Loyihada keltirilgan muammoni bartaraf qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda vazifalarning jamoa o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlanganligi, muddatlarning to‘g‘ri belgilanganligi.	Loyihada keltirilgan muammoni bartaraf qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda vazifalarning jamoa a’zolari o‘rtasida noto‘g‘ri taqsimlanganligi, muddatlarning to‘g‘ri belgilanganligi.	Loyihada keltirilgan muammoni bartaraf qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda vazifalarning jamoa a’zolari o‘rtasida taqsimlanmaganligi,	Loyihada keltirilgan muammoni bartaraf qilish bo‘yicha chora-tadbirlarning mavjud emasligi.

			muddatlarning to‘g‘ri belgilanganligi.	
6	Loyihada muammoning dolzarblik darajasi yoritilganligi, qiyosiy tahlil qilinganligi, tahlil usullaridan o‘rinli foydalanganligi.	Loyihada muammoning dolzarblik darajasi yoritilganligi, qiyosiy tahlil qilinganligi.	Loyihada muammoning dolzarblik darajasi yoritilganligi, qiyosiy tahlil qilinmaganligi.	Loyihada muammoning dolzarblik darajasi keltirilmaganligi, tahlil qilinmaganligi.
7	Loyihani taqdimot shaklida berilgan vaqtdan unumli foydalangan holda taqdimot mazmunini to‘liq tushuntirib bera olganligi.	Loyihani taqdimot shaklida berilgan vaqtdan unumli foydalangan holda taqdimot mazmunini qisman tushuntirib bera olganligi.	Loyihani taqdimot shaklida berilgan vaqtdan foydalangan holda taqdimot mazmunini qiyinchilik bilan tushuntirib bera olganligi.	Loyihani taqdimot shaklida berilgan vaqt ko‘rsatkichidan chetga chiqilganligi, taqdimot mazmuni yetarli darajada tushuntirilmaganligi.
8	Mavzuga oid adabiyotlarning to‘g‘ri tanlanganligi va tahlil qilinganligi.	Mavzuga oid adabiyotlar to‘g‘ri tanlanganligi va qisman tahlil qilinganligi.	Mavzuga oid adabiyotlarning tanlanganligi va tahlilning sustligi.	Mavzuga oid adabiyotlarni tanlashda xato va kamchiliklarning mavjudligi.
9	Muammolarni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflarning mavjudligi, shuningdek, takliflarda innovatsion g‘oyalarning o‘rinli va asosli ilgari surilganligi.	Muammolarni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflarning mavjudligi, takliflarda g‘oyalarning ilgari surilganligi.	Muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ayrim takliflarning mavjudligi va qisman asoslanganligi.	Muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarning mavjudligi, lekin asoslanmaganligi.
10	Muammoni bartaraf etish bo‘yicha zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalana olish ko‘nikmasini namoyon qilganligi.	Muammoni bartaraf etish bo‘yicha an’anaviy boshqaruv usullaridan foydalana olish ko‘nikmasini namoyon qilganligi.	Muammoni bartaraf etish bo‘yicha boshqaruv usullaridan foydalana olish ko‘nikmasini qisman namoyon qilganligi.	Muammoni bartaraf etish bo‘yicha boshqaruv usullaridan foydalana olish ko‘nikmasi namoyon etilmaganligi.

VII. Yakuniy test sinovi bo‘yicha baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 60 ball bilan baholanadi. Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test va keys topshiriqlarini bajarish uchun umumiy 80 daqiqa vaqt beriladi.

IIX. Yakuniy sinovlari bo‘yicha amaliy topshiriqlarni baholash mezonlari.

Yakuniy sinovning amaliy topshiriqlarini topshirishda nomzodning ta’lim muassasasidagi muammoga yechim topish hamda taqdimot qilish ko‘nikmalari baholanib, maksimal ball 40 balni tashkil etadi.

Amaliy topshiriqlarni baholash sinovida har bir nomzodning taqdimotiga 10 daqiqa va savol-javoblar uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

Amaliy topshiriqlarni baholashda ishtirok etgan Komissiyaning har bir a’zosi tomonidan qo‘yilgan ballarning o‘rtachasi hisobidan aniqlanadi.

Kursning yakuniy sinov natijalari maksimal 100 balni tashkil etadi. 70 ball va undan yuqori natija ko‘rsatgan tinglovchilar yakuniy sinovni muvaffaqiyatli topshirgan hisoblanadi. Bunda tinglovchilar har bir sinov (test, keys va amaliy topshiriqlar) bo‘yicha kamida 50 foiz ball yig‘ishi talab etiladi.

IX. Imtihon tartibi

Yakuniy sinovlar sanitar va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilingan holda maxsus jihozlangan xonalarda o‘tkaziladi. Yakuniy sinovni o‘tkazish jarayoni to‘liq video-yozuvda qayd qilinadi.

Imtihon vaqtida barcha turdagi aloqa vositalari, normativ-huquqiy hujjatlar, ma’lumot va maxsus adabiyotlardan foydalanish, so‘zlashish va axborot almashish qat’iyan taqiqlanadi. Mazkur talablarni buzgan tinglovchilar tegishli dalolatnoma tuzilgan holda sinovdan chetlashtiriladi va natijasi bekor qilinadi.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Umarova H., Ismailov A., Xudoyberdiyev E. Ta'lim menejmenti. Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2025. – 256 b.

2. Ibragimov A. va b. O'quv-ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va akademik rivojlanish. Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2025. – 192 b.

3. Baxromov A. va b. Pedagog va xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish (CPD). Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2025. – 112 b.

4. Xalimov M. va b. Inson resurslarini boshqarish (HR). Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2025. – 128 b.

5. Rajabov Sh. va b. Ish yuritish va hisobdorlik. Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2025. – 216 b.

6. Karimova E. va b. Ish beruvchilar va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik strategiyalari. Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2025. – 112 b.

7. Eshqobilov S. va b. Boshqaruvda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (AI). Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2025. – 112 b.

8. Ismailov A. va b. Ta'limda liderlik va o'zgarishlarni boshqarish. Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2025. – 320 b.

9. Turg'unboyev va b. Inklyuziv ta'limni tashkil etish. Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2025. – 112 b.

10. Radjabov S. va b. Moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarish. Kasbiy ta'lim tashkilotlari direktorlari va ularning o'rinbosarlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2025. – 160 b.

11. Xoliqov A.A., Saidov M.X. Kasbiy ta'limda dual tizim: xalqaro tajriba va amaliyot. Toshkent, Iqtisodiyot, 2021. – 210 b.

12. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'lim agentligi va A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan ishlab

chiqilgan amaldagi Menejerlik o‘quv kursi modullar mavzulari (o‘quv-metodik manbalar va ma'ruza matnlari).

XI. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 30.04.2023. LexUZ.

2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 28.10.2022, O‘RQ-798-son. LexUZ.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020, O‘RQ-637-son. LexUZ.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. 01.02.2024, O‘RQ-901-son. LexUZ.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni. 05.06.2024, O‘RQ-931-son. LexUZ.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 16.10.2024, PF-158-son. LexUZ.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 23.10.2025, PF-190-son. LexUZ.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 23.10.2025, PQ-316-son. LexUZ.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasbiy ta’lim tizimi boshqaruv va pedagog kadrlarini kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 20.08.2026, 451-son. LexUZ.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasbiy ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. 29.09.2026, 526-son. LexUZ.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasbiy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 163-son, o'quvchilarni qabul qilish bo'yicha 647-son hamda buyurtmachilar ishtirokini kengaytirishga oid 449-son qarorlari (2021-2026). LexUZ.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Texnikumlarda xorijiy ta’lim tashkilotlari ishtirokida qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. 30.09.2025, 614-son. LexUZ.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasbiy ta’lim agentligi va Kasbiy ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori. 30.04.2026, 216-son. LexUZ.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori. 06.08.2025, 498-son. LexUZ.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 572-sonli (130-sonli qaror tahririda) qarori. LexUZ.

Tuzuvchilar:

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Akademik faoliyat bo‘yicha birinchi prorektori — **D.Xakimova**

Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktor o‘rinbosari — **F.Atamuratova**

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Rahbar kadrlarning bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash markazi direktori — **R.Sodiqov**

Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi Amaliy fanlar bo‘limi boshlig‘i — **G.Nazarova**